

## JINOYAT QONUNNING VAQT BO‘YICHA AMALDA BO‘LISH TUSHUNCHASINING TAVSIFI.

Otayev O‘tkirbek Matyoqubovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti  
Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi  
Podpolkovnik

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb topilishi va ushbu qilmishga nisbatan jinoiy jazo qo‘llanilishi faqat ushbu harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan vaqtida amalda bo‘lgan jinoyat kodeksi bilan belgilanishi, ilmiy asoslangan tavsiflar berilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *Konstitusiya, jinoyat qonuni, amal qilishi, vaqt, e’lon qilinishi, tatbiq etilishi, jazo.*

**Аннотация:** В данной статье признание общественно опасного деяния преступлением и применение к этому деянию уголовного наказания определяется только уголовным кодексом, действовавшим на момент совершения деяния или бездействия, даны научно обоснованные характеристики.

**Ключевые слова:** Конституция, уголовный закон, действие, время, принцип законности, обнародование, реализация, наказание.

**Abstract:** *This article provides scientifically based descriptions of the fact that the recognition of a socially dangerous act as a crime and the application of criminal punishment for this act are determined only by the Criminal Code in force at the time of the commission of this act or omission.*

**Keywords:** *Constitution, criminal law, validity, time, principle of legality, promulgation, application, punishment.*

Jinoyat qonunchiligi tarixiy jihatdan doimo o‘zgarib, takomillashib boruvchi normativ huquqiy-hujjat hisoblanadi, chunki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiyotda ishlab chiqarishning modernizasiya qilinishi natijasida jinoyat qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilib boriladi. Bu esa o‘z navbatida ushbu hujjatning doimiy o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Jinoyat qonuni ushbu huquq sohasining yagona manbai hisoblanadi. Jinoyat to‘g‘risidagi milliy qonunchilik hujjatlari jinoyat kodeksining 1-moddasiga ko‘ra Konstitusiya va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga asoslangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan iboratdir. Bu moddaning ahamiyati shundaki, unda faqatgina Jinoyat kodeksi bilan belgilanadigan, Konstitusiya va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga zid kelmaydigan jinoyat qonunchiligining manbalari aniq ko‘rsatilgan. Boshqa hech bir me’yoriy hujjat, urf-odatlar uning manbai bo‘la olmaydi. Qonun chiqaruvchi organ, ya’ni Oliy Majlisning rasmiy hujjati hisoblanuvchi Jinoyat kodeksiga huquqning mazkur sohasidagi yagona manba maqomini berish, barcha huquqiy normalarni bir qonunda jamlash, ularni tizimlilik tamoyilidan kelib chiqqan holda muayyan ketma ketlikda joylashtirish, barcha qonunlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish,

huquqni qo‘llovchilarning qonunlardan foydalanishlari uchun barcha qulayliklarni yaratish imkonini beradi<sup>1</sup>. Jinoyat huquqiy munosabatlarni tor va keng ma’nolarda tushunish mumkin. Jinoyat huquqiy munosabat keng ma’noda jinoyat qonuning rasmiy ravishda kuchga kirishi bilan yuzaga keladigan munosabat hisoblanadi. Xuddi shu vaqtdan boshlab yangi jinoyatlarni sodir qilishdan ogohlantiruvchi, ya’ni ularni sodir qilishni taqiklovchi qonunning amal qilishi boshlanadi. O’shandagina jinoyat qonuni barcha fuqarolarga nisbatan o‘zining tarbiyaviy funksiyasini amalga oshirishni boshlaydi. Jinoyat huquqiy munosabatlarni keng ma’noda ko‘rib chiqish, jinoyat qonunchilagini takomillashtirish uchun muhim bo‘lgan jinoyat qonuning kuchga kirgan paytidan boshlab uning aholi orasidagi ta’siri mexanizmini aniqlash, jinoyat qonuning samaradorligini o‘rganishga yordam beradi. o‘o‘harakat yoki harakatsizliko‘o‘ Qisqacha qilib aytganda sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat amaldagi jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida jinoyat kodeksining “nazarda tutadi ya’ni sodir etilgan jinoyatni kvalifikasiya qilishda qaysi qonun asosida ish olib borish kerakligini jinoyat qonunini adashmasdan qo‘llash quyidagi holatlarni yig‘indisiga albatta mos kelishi kerak:

- ✓ Normativ-huquqiy hujjatlarni ta’sir qilish davriga;
- ✓ Jinoyat sodir qilingan vaqtiga.

Demak, yangi qabul qilingan jinoyat qonuni kuchga kirmasdan turib jinoyat sodir etilganda, eski jinoyat bilan ko‘rib chiqilishi, aksincha jinoyat, yangi qonun amal qilishi vaqtida tugagan bo‘lsa, yangi jinoyat qonuni qo‘llanilishi kerak bo‘ladi. Ya’ni jinoiy qilmish sodir etilgan vaqtda amaldagi jinoyat qonunini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda jinoyat qonunini qo‘llashning yagona sharti, jinoyat sodir etilgan vaqtda ushbu qonunning amalda bo‘lishidir.

M.G.Melnikovning fikricha “Jinoiy qonunning o‘z vaqtida ta’siri deganda, qonun doirasasi va jinoiy-huquqiy munosabatlar sub’ekti faoliyati o’rtasidagi muayyan bog’liqlik tushunilishi kerak. Ushbu huquqiy bog’liqlik jinoyat huquqi normasini amalga oshirishning turli shakllari bilan belgilanadi va ushbu qonun qo‘llaniladigan xatti-harakatlar doirasiga asoslangan normativ ahamiyatga ega bo‘lgan chegaralar bilan cheklanadi ya’ni jinoyat huquqi normasining mayjud bo‘lish muddatiga qarab shuningdek, ushbu qonun bilan belgilangan tartib saqlanadigan chegaralar bilan belgilanadi”<sup>2</sup>.

A.M.Yerasovning fikricha “Qilmishning jinoiyligini bartaraf etuvchi jinoyat qonuni jinoyat tarkibini Jinoyat kodeksining Maxsus qismidan butunlay chiqarib tashlaydigan, uni umumiyoq normaga singdirmagan yoki qo‘shimcha shartlar kiritish orqali jinoiy qilmishlar doirasini toraytiruvchi qonundir”<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 99-moddasiga asosan qonun – Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy manbalarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘lib o‘z kuchini yo‘qotmagan qonun

<sup>1</sup> *Qarang: M.H. Rustamboev Jinoyat huquqi (umumiyoq qism) Darslik. Toshkent – “Ilm ziyo” – 2006-y. 65-bet*

<sup>2</sup> M.G.Melnikov. Deystviye ugolovnogo zakona vo vremeni i prostranstve. Dissertasiya. 1999 g

<sup>3</sup> A.M.Yerasov Obratnaya sila ugolovnogo zakona. Dissertasiya. 2004g

amalda deb hisoblanadi. Jinoyat Kodeksining 13-moddasi mohiyati shundaki u jamiyatning eng zarur va barqaror ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladigan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadigan qonunlarni emas, balki ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb topishga va jazo qo‘llash ishlarini aniqlashga ta’sir etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ham to‘laligicha qamrab oladi. Jumladan, buzilishi jinoyat deb topiladigan normalar o‘rnatilgan normativ huquqiy hujjatlar ham qonun hisoblanadi. Masalan, Ma’muriy nazorat o‘rnatish qoidalari va xakozo. Haqiqatan ham ko‘pchilik hollarda sodir etilgan qilmishning xavflilik darajasi va jinoiy jazoning og‘irligi, uni keltirib chiqargan oqibatlar ko‘rsatib o‘tilgan qoidalarning buzilishi natijasidami yoki yo‘qligi, ushbu qilmishlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab aniqlanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 266-moddasi 2-qismi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuning 7-moddasiga ko‘ra Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining **Konstitusiyasi** va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari **qonun hujjatlaridir**.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari **qonunosti hujjatlaridir**.

Bu normativ-huquqiy hujjatlar jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qilmishlarning jinoiyligi va jazoga sazovorligiga ta’sir ko‘rsatgan holdagina jinoyat qonuni sirasiga kiradi. Shuni esda tutish kerakki, yuqorida ko‘rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlar jinoyatni va qilmishning jazolanishi kerakligini aniqlamaydi bu huquq faqat jinoyat kodeksining o‘ziga hosdir, ammo bu normativ-huquqiy hujjatlar u yoki bu harakatni jinoyat deb tan olishga yoki jinoyatdagi harakatsizlik va jamiyat uchun xavflilik darajasini aniqlashga ta’sir etadi. Masalan, Jinoyat Kodeksining 273-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortish uchun Giyoxvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ro‘yxatini o‘rnatuvchi qoidalari o‘z kuchidami, yangilanmaganmi, degan savollarga aniqlik kiritish kerak, ya’ni ushbu soxani tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjat mavjudligini aniqlash kerak bo‘ladi.

Amaldagi qonunchilik asosan, “Qonunchilik tashabbusi huquqiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, o‘z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi”<sup>4</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi qonuni 12-moddasiga ko‘ra “Qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga qo‘yish tashabbusi, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan organlar va shaxslarga,

<sup>4</sup> *Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 98-moddasi*

shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qo‘mitalariga tegishlidir”. Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihasini umumxalq muhokamasiga qo‘yish haqida qaror qabul qiladi. Shundan keyin o‘n kundan kechiktirmay qonun loyihasi “Xalq so‘zi”, “Narodnoye slovo” gazetalarida, maxsus nashrlarda, boshqa ommaviy axborot vositalarida ham chop qilinadi. Chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari, fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalaridan umumxalq muhokamasi davomida qonun loyihasi yuzasidan og‘zaki yoki yozma shaklda, tavsiya va maslahat xususiyatiga ega taklif va mulohazalar kiritiladir. Qonun loyihalining umumxalq muhokamasi yakunlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Qonunchilik palatasi qonunni qabul qiladi va o‘n kundan kechiktirmay uni ma’qullash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboradi. Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan oltmis kun ichida ko‘rib chiqiladi va ma’qullangan taqdirda, imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kundan kechiktirmay yuboriladi. Qonunning rasmiy matnni tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolash orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni oltmis kun ichida imzolaydi va e’lon qiladi.

***Qonunni e’lon qilish*** – bu qonunni muayyan rasmiy manba nashrlarida e’lon qilish orqali uni xalqqa yetkazishdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 30-moddasiga asosan “Hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas”. Xuddi shunday qoida “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasida ham mustaxkamlangan. Unga ko‘ra normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi kerak. Normativ-huquqiy hujjatning e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir. Ya’ni faqatgina rasmiy e’lon qilingan nashr muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u normativ-huquqiy hujjatning rasmiy matni asosida uning nusxalarini yaratish hamda uning kuchga kirishini shuningdek vaqt bo‘yicha amal qilishini aniqlashda yordam beradi. Rasmiy e’lon qilish huquqni muxofaza qiluvchi organlar nomidan qonunchilikda nazarda tutilgan manbaga asosan, mazkur masalaga to‘g‘ri, to‘liq va aniq oydinlik kiritishni me’yoriy hujjatlar asosida yo‘lga qo‘yishni tartibga soladi. Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra: Quyidagilar normativ-huquqiy hujjatlarning e’lon qilinadigan rasmiy manbalar hisoblanadi.

➤ “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” – O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

➤ “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to‘plami”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

➤ “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, shuningdek vazirliklar va idoralarning rasmiy nashrlari – vazirliklar va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

➤ “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlari – mazkur mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

Qonun ijrosining majburiyigini belgilaydigan muhim element bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishi yoki uning amal qilishi tugatilishi vaqtini aniqlash hisoblanadi. Normativ huquqiy hujjatlarning kuchga kirishini aniqlash normativ hujjatlarning qo‘llanilishida muhim tamoyil hisoblanadi, chunki ayni o‘scha paytga qadar u majburiy hisoblanmaydi, ya’ni qonun kuchga kirdunga qadar eskisi amalda bo‘ladi, kuchga kirmagan qonunning harakat qilishi amaldagi normalarni buzish hisoblanadi.

*Qonunning kuchga kirishi* – deganda, ushbu paytdan boshlab normativ huquqiy hujjatlarning normalari makonda kuchga kirishi, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi jismoniy va yuridik shaxslar, davlat hokimiyati va boshqaruva organlari tomonidan amal qilishlari va ijro etilishi majburiyigli tushuniladi.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 40-moddasiga ko‘ra: Normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi. Jumladan, jinoyat kodeksi ham 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingani bilan 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan. Bunda shuni e’tiborga olish kerakki jinoyat qonunida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomili murakkablashtirilishini va tadbirkorlik faoliyati subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatilishini nazarda tutadigan, shuningdek ularning javobgarligiga oid yangi choralarni belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kamida uch oydan keyin kuchga kiradi. Qonunning yuridik kuchga kirish muddatlari odatda kechiktirilib ko‘rsatiladi, sababi xalqning bunday qonunlarning mohiyati bilan tanishib chiqishi, shuningdek, huquqni muxofaza qiluvchi organlar tomonidan ularning fikrlarini aniqlash muhim ekanligi nazarda tutiladi. Agarda normativ-huquqiy hujjat bir necha manbalarda e’lon qilingan bo‘lsa, uning kuchga kirish muddatini hisoblab chiqish uchun dastlabki rasmiy e’lon qilingan muddatdan foydalilanadi. Chunki normativ-huquqiy hujjatlarning nashr etilishi va ularning kuchga kirishi O‘zbekiston Respublikasida amal qilishining ikkita asosiy talabidir. Shuni unutmaslik kerakki, agarda normativ huquqiy hujjat chop etilmagan bo‘lsa, ma’lum vaqt ichida uning amalda qo‘llanilgan bo‘lishiga qaramay, buday hujjat kuchga kirgan deb tan olinmaydi. Ya’ni normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirish vaqtı ayrim hollarda uning rasmiy chop etilgan muddati bilan qatiy bog‘liq bo‘lmasada, bunday nashrsiz ularning amaldaligi tan olinmasligi lozim. Normativ-huquqiy hujjat, agar uning matnida boshqacha izoh berilmagan bo‘lsa, muddatsiz amal qiladi. Normativ-huquqiy hujjatning amal qilish muddati butun hujjat yoki uning bir qismi uchun belgilanishi mumkin. Bunday holda normativ-huquqiy hujjat yoxud uning bir qismi qaysi muddatga yoki qanday hodisa yuz berguniga qadar o‘z kuchini saqlab qolishi ko‘rsatilishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ belgilangan muddat tugaguniga qadar yoki hodisa yuz berguniga qadar hujjatning yoki uning bir qismining amal qilishini yangi muddatga, boshqa hodisa yuz berguniga qadar uzaytirish to‘g‘risida yoxud normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka, o‘tkazilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga, jamiyatdagi barqaror huquqiy munosabatlarga muvofiq bo‘lgan taqdirda normativ-huquqiy hujjatga (uning qismiga) muddatsiz tus berish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

*Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi quyidagi hollarda o‘zining amal qilishini tugatadi:*

- ✓ normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qaysi muddat yoki hodisa yuz berishi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, o‘sha muddat tugaganida yoki hodisa yuz bergenida;
- ✓ normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qonunda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq emas yoxud haqiqiy emas deb topilganda;
- ✓ normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilganda;
- ✓ normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi bekor qilinganda<sup>5</sup>.

*Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qaysi muddat yoki hodisa yuz berishi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, o‘sha muddat tugaganida yoki hodisa yuz bergenida amal qilishini tugashi* – uning muddati tugaganligi yoki biror hodisa yuz berishi bilan shu vaqtan boshlab haqiqiy emasligini bildiradi. Bunday muddatni aniqlash uchun biror bir o‘zgarishning sodir bo‘lishi (masalan, Muddat bo‘yicha hammaga ma’lum bo‘lgan voqyealar) qiyinchilik tug‘dirmaydi. Masalan, Favqulotda holatning tugashi, Karantin e’lon qilinganda va hokazo. Bunday holatlarda huquqni muxofaza qiluvchi organlar tegishli davlat boshqaruvi organlarining shunga o‘xshash normativ-huquqiy hujjatlarini ko‘rsatilgan muddatdan boshlab to‘xtatish haqidagi maxsus ko‘rsatmalarini talab qilishlari kerak.

*Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qonunda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq emas yoxud haqiqiy emas deb topilganda* – uning amalda bo‘lishini tugatishning alohida asosi bo‘lib, maxsus tartib bilan xarakterlanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning konstitusiyaviy emasligini hal etish faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi tomonidan qonunda ko‘rsatilgan shaxslar arizasiga asosan qo‘llaniladi. Bunda normativ hujjatlarning Konstitusiyaga mosligi yoki nomuvofiqligi to‘g‘risidagi xulosasi sud qarori shaklida qabul qilinadi. Masalani ko‘rib chiqish vaqtida qonun chiqaruvchi yoki qonun ostidagi hujjat Konstitusiyaviy sud qarorining nashr qilingan vaqtin ko‘rsatilgan holda konstitusiyaviy emas deb tan olinadi, chunki aynan shu vaqtan boshlab, sud qarori kuchga kiradi va unga muvofiq ravishda, qonun chiqaruvchi hujjat (uning qismlari) konstitusiyaviy yoki nokonstitusiyaviy deb tan olinadi. Normativ hujjatlarning konstitusiyaviy emasligini tan olish boshqa usullar bilan uning ta’sirini to‘xtatishdan shu bilan farq qiladi, hujjat Konstitusiyaviy sud qarori chiqarilgan vaqtan emas, balki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, qabul qilingan kundan boshlab konstitusiyaviy emas deb topiladi. Bu shuni bildiradiki, normativ-huquqiy hujjat qaror chiqquncha va qaror

<sup>5</sup> *Qarang:* «Normativ xuquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonunning 45-moddasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son

chiqqandan keyingi holatlarda qo'llashga loyiq emasligini ko'rsatadi. Bunda ushbu qonun orqali qabul qilingan barcha dastlabki yechimlar, amaldagi qonunchilik asosida qayta ko'rib chiqilishi zarur. Normativ-huquqiy hujjatning yaroqsizligi shuni ham bildiradiki, jinoyat kodeksining 13-moddasi 2 va 3-qismlarida nazarda tutilgan qonunning orqaga qaytish kuchi haqidagi qoida sudlanayotgan, ayblanayotgan, gumon qilinayotgan shaxsga qulay vaziyat yaratgandagi hollarda ham qo'llanilmaydi. Shuni bilish zarurki, Konstitusiyaviy sud qarori e'lon qilinadigan rasmiy manba belgilab qo'yilmagan, Konstituiyyaviy sud qarori u O'zbekiston Respublikasi hududidagi ommaviy axborot vositalari orqali dastlabki e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

**Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o'z kuchini yo'qotishi** –uning amalda bo'lishini to'xtatishning ikki shart mavjudligi bilan tavsiflanadigan usuli: (formal yuridik emas) ilgarigi qonun hujjatini amalda bekor qilish va bir vaqtning o'zida o'xshash ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladigan yangi aktni qabul qilish.

Ilgari qabul qilingan barcha hujjatlar yoki ularning qismlari, agar ular yangi normativ ko'rsatmalarga zid bo'lsa yoxud yangi hujjat bilan to'laligicha qamrab olingen yoki amalda o'z ahamiyatini yo'qotgan, lekin rasman o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etil magan hollarda (masalan, qonun hujjati tartibga solishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning yo'qolishi) hujjat o'z kuchini yo'qotadi.

**Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi bekor qilish** – uning kuchini yo'qotishdan shunisi bilan farq qiladiki, keyingi shunga o'xshash munosabatlarni boshqaradigan ikkinchi hujjatni qabul qilishdan iborat. Bunday hollarda normativ huquqiy hujjat so'zsiz maxsus farmoyish bilan nufuzli davlat organlari tomonidan (yuridik rasman bekor qilish deb ataladi) normativ huquqiy hujjat shaklida bekor qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Normativ huquqiy hujjatning bekor qilinishi yoki kuchini yo'qotish vaqqi yangi normativ ko'rsatmalarining yoki vakolatli davlat organlarining maxsus farmoyishi kuchga kirgan vaqtdan boshlab tan olinadi.

Jinoyat sodir etilgan vaqtini aniqlash qonunning vaqt bo'yicha amal qilishining zaruriy belgisi hisoblanib, uni aniqlash qoidalari Jinoyat kodeksi 13-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan. Mazkur norma qoidalariga muvofiq, jinoyat sodir etish vaqtini jinoyat tarkibi turiga qarab aniqlanadi:

**moddiy tarkibli jinoyatlarda** jinoyat sodir etish vaqtini ijtimoiy xavfli oqibat yuzaga kelgan vaqt hisoblanadi (masalan, JKning 97-moddasi, o'lim kelib chiqishi);

**formal tarkibli jinoyatlarda** jinoyat sodir etish vaqtini kelib chiqadigan oqibatdan qati nazar qilmish sodir etilgan vaqt bilan belgilanadi (jumladan, qalbaki pul tayyorlash).

Shu taxlitda, jinoyat sodir etish vaqtini qilmishning obyektiv mezonidan kelib chiqib, xususan, jinoiy javobgarlikka tortish asoslari, ya'ni Jinoya kodeksi 16-moddasida ta'kidlanganidek, jinoyat tarkibi mavjudligidan kelib chiqib aniqlanadi. Qonunning vaqt bo'yicha amal qilishini aniqlash uchun jinoyat sodir etishning butun jarayoni (boshidan oxirigacha) emas, balki faqatgina jinoyatning tugagan vaqtini, ya'ni qonun bo'yicha jinoiy deb hisoblangan barcha xatti-harakatlar yakunlanganligi ahamiyatga ega.

Jinoyat sodir etilgan vaqtini aniqlashda tergov va sud organlari asosiy diqqat e'tiborni uzoqqa cho'zilgan va davomli jinoyatlarni, ikkita harakatdan iborat bo'lgan jinoyatlarni,

takroran sodir etilgan jinoyatlarni, shuningdek, ishtirokchilikdagi jinoyatlarni tergov qilishga qaratishlari kerak. Sodir etilgan jinoyatlar vaqt, odatda, Jinoyat kodeksi 13-moddasi 1-qismi asosida aniqlanib, unga muvofiq, qilmish jinoyat tarkibining barcha belgilariga ega bo‘lgan payt jinoyat tamom bo‘lgan vaqt deb hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, jinoyatni sodir etish vaqt Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi jinoyat tarkibi tuzilishiga bog‘liq, jumladan, davomli jinoyatlarni kvalifikasiya qilish uni tashkil qiluvchi oxirgi qilmish sodir etilganda amalda bo‘lgan qonunga asoslanishi kerak.

**Davomli jinoyatlar** – bu yagona qasd bilan qamrab olingan va umumiyl maqsadga qaratilgan bir qancha o‘xshash harakatlarni sodir etish bilan tavsiflanadigan huquqqa xilof ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Bunday qarorning to‘g‘riliqi yuqori turuvchi sud instansiyasining “jinoyat qonuniga jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan o‘zgartirishlar kiritilganda, agar jinoyat epizodlaridan hech bo‘lmaganda bittasi qonun yangi tahrirda amal qila boshlagan davrda sodir etilgan bo‘lsa, davomli jinoyatning barcha epizodlari yangi qonun bo‘yicha kvalifikasiya qilinishi kerak degan fikrida ham o‘z isbotini topadi.

**Ikki harakatli jinoyat** – o‘xshash jinoyatlar tarkibi qonunda shunday ko‘rsatiladiki, bunda faqat ikki harakatni amalga oshirgan shaxs jinoyatchi deb hisoblanadi. O‘xshash qilmish sodir etish vaqt deb esa, oxirgi harakatlar yakunlangandan keyin jinoyat tarkibini aniqlangandagi vaqt tan olinadi. Berilgan muayyan jinoyat tarkibini aniqlash uchun muhim bo‘lgan oxirgi harakatni sodir etish payti, ikki harakatli jinoyat sodir etish vaqt deb topilishi kerak.

**Uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar** – jinoyat huquqiy tahdidni ifodalaydigan majburiyatlarni uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo‘lgan harakat yoki harakatsizlikda namoyon bo‘ladi. Birinchi harakat (harakatsizlik) sodir etilgan payt uzoqqa cho‘zilgan jinoyat sodir etilgan vaqt deb topiladi. Ayni paytda, uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar sodir etilgan vaqtini aniqlashda uning ayrim o‘ziga hos tomonlariga e’tibor beriladi. Agar uning ijtimoiy xavfliligi uzoq davom etuvchi jinoyatlarda, masalan, harbiy xizmat yoki qismni tashlab ketish (JK 287-moddasi) yoki keltirilgan zararning umumiyl miqdori, masalan, soliq yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tov lash hollari. Ko‘pincha, agar keltirilgan zarar muddati yoki summasi ko‘paysa, jinoyat sodir etish vaqt yangi muddatning o‘tishi yoki yangi qonun endigina kuchga kirgandan so‘ng hali ilgarigi yetkazilgan katta zarar muddati tugamay turib yana yangidan katta zarar yetkazish bilan o‘tgan vaqtadan tan olinadi. Agar muddat yangi qonun bilan qisqartirilsa, jinoyatni tan olish uchun eski muddatning o‘tishi yoki ilgarigi keltirilgan zarar miqdori yangi muddatni yoki to‘liq o‘tashi kerak yoxud yetkazilgan yangi zarar miqdori yangi qonun kuchga kirgandan boshlab hisobga olinadi.

Takroriylikni tashkil qiluvchi oxirgi yoki og‘irlashtiruvchi belgi hisoblangan qilmish sodir etilishi takroran jinoyat sodir etish, shuningdek, og‘irlashtiruvchi tarkibli jinoyatlar sodir bo‘lgan vaqt deb topiladi. Agar ijtimoiy xavfli qilmish ishtirokchilikda sodir etilgan bo‘lsa, u holda har bir ishtirokchining bu qilmishta qo‘shilgan vaqt hisobga olinadi. Bunday hollarda jinoyatni sodir etish faqatgina shu guruhning sodir etgan jinoyatinigina emas, balki bu guruhdagi har bir ishtirokchining amalga oshirgan xatti harakatlaridagi ishtiroklaridan boshlab hisoblanadi. Shuning uchun, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar vaqtini

aniqlashda bajaruvchidan tashqari, tashkilotchi, dalolatchi, yordamchilarnini ham har bir harakati nazardan chetda qolmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, agar ishtirokchilikda yangi qonun kuchga kirgunga qadar jinoyat sodir etilsa, aybdor ilgarigi jinoyat qonunchiligi bilan ayblanadi. Bunda jinoiy tarkibi, ishni haqiqatan ham butunlay amalga oshirganligi yoki yangi qonun kuchga kirgandan keyin amalga oshirganligi muhim ahamiyatga ega. Masalan, aybdor yangi qonun kuchga kirgunga qadar o‘g‘rilik qilish uchun guruh tashkil qilgan, haqiqiy o‘g‘rilik esa qonun kuchga kirgandan so‘ng bajarilgan. Bunda, jinoyat sodir etish paytini Jinoya kodeksi 13-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan qoidaga muvofiq aniqlanib, tashkilotchi eski qonun bo‘yicha javobgar bo‘lib, bajaruvchilar esa yangi qonun bo‘yicha javobgarlikka tortiladi. Bu masalaning ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatning barcha ishtirokchilar uchun tamom bo‘lish vaqt vaqt bajaruvchi tomonidan jinoyatni sodir etish vaqtining hisoblanishiga asoslangan boshqacha yechimi odillik tamoyiliga mos kelmaydi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd qilish shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan tamom bo‘lmagan jinoiy faoliyatni keltirib chiqaradi. Shu sababli qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd qilish deb kvalifikasiya qilinadi va jinoiy faoliyat to‘xtatilgan vaqtda amalda bo‘lgan qonun qo‘llaniladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.** Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
- 2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son.
- 3. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.** Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.
- 4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 23.06.2023-yildagi “Odil sudlovnii amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 16-son qarori.**
- 5. “A. Yakubov, R. Qabulov Jinoyat huquqi. Darslik Umumiyl qism. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2009-yil.**
- 6. M.H. Rustamboyev Jinoyat huquqi (umumiyl qism) Darslik. 2023y.**
- 7. M.G.Melnikov. Deystviye ugolovnogo zakona vo vremeni i prostranstve. Dissertasiya. 1999 g.**
- 8. A.M.Yerasov Obratnaya sila ugolovnogo zakona. Dissertasiya. 2004g.**
- 9. O‘.M.Otayev Jinoyat qonuning amal qilish doirasi.Qo‘llanma 2024y**